

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

SUN'iy INTELLEKTNI YARATISHGA OID SHARTNOMA TUSHUNCHASI VA TURLARI

Berdialihev Mirzafar Murodovich

Mirzafar2110@icloud.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda sun'iy intellekt texnologiyalarining yaratilishiga oid fuqarolik huquqiy munosabatlarini yuzaga keltiruvchi shartnomalar, ularning tasnifi va turlari atroflicha o'r ganilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalarining yaratilishi hamda uning yaratilishi bilan bog'liq yuzaga keladigan huquqlarni tartibga solishda asos bo'luvchi shartnoma turlari ham misol yordamida tavsiflangan.

Kalit so`zlar: huquqiy hodisa, etiketli, sun'iy intellekt, shartnoma, mualliflik shartnomasi, litsenziya, Fuqarolik kodeksi, reklama, Neoline, ichki ishlar, buyurtmachi, Google.

Kirish: Huquqshunoslarning olib borayotgan tadqiqotlari raqamli texnologiyalarni rivojlantirish sharoitida iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish masalalariga ham tobora ko'proq bog'lanib bormoqda. Zamon tez fursatlarda o'zgarmoqda, ijtimoiy munosabatlarning muhim xususiyatlari ham o'zgarib bormoqda. Advokatlar jamiyat hayotidagi har qanday hodisani huquq normalari nuqtai nazaridan baholashga harakat qiladilar, ular ko'pincha "huquqiy hodisa" toifasidan foydalanadilar. Shu bilan birga, ko'plab hodisalar qonunning tartibga soluvchi kuchidan uzoqdir ya'ni raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida qonunchilikda vujudga kelayotgan ijtimoiy munosabatlarning ayrim jihatlarini tartibga solishga tayyor emasligi yoki qobiliyatsizligidan dalolat beradi. Shuningdek sun'iy intellektni o'zaro munosabatlardagi o'rnini aniqlash davomida, uning yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan shartnomalar to'g'risida fikr yuritsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki sun'iy intellektning yaratilishi huquq normalari bilan tartibga solinganda, kelajakda undan foydalanish tartibi, uning qaysi maqsadlarda ishlatalishi, sun'iy intellekt texnologiyasining mulkdorini hamda uning munosabatlardagi o'rnini aniqlashda yordam beradi.

Umuman olganda, sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi etiketli o'quv ma'lumotlarini qabul qilish, korrelyatsiya va naqshlar uchun ma'lumotlarni tahlil

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

qilish va kelajakdagi holatlar haqida bashorat qilish uchun ushbu naqshlardan foydalanish orqali ishlaydi. Shu tarzda, matnli chatlar misollari bilan ta'minlangan chatbot odamlar bilan jonli almashishni o'rganishi mumkin yoki tasvirni aniqlash vositasi millionlab misollarni ko'rib chiqish orqali tasvirlardagi obyektlarni aniqlash va tavsiflashni o'rganishi mumkin.

Asosiy qism: Sun'iy intellekt fuqarolik-huquqiy munosabatlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda, chunki u ishlab chiqaruvchi korxona va kompaniyalarga o'zlarining operatsiyalari haqida ular ilgari bilmagan bo'lishi mumkin bo'lgan tushunchalarni berishi, shuningdek ba'zi hollarda sun'iy intellekt mehnat vazifalarni odamlarga qaraganda yaxshiroq bajarib kelmoqda. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarini oladigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish so'rovi shaxslar tomonidan qayta-qayta takrorlanib jo'natilib kelinmoqda. Misol tariqasida oladigan bo'lsak, avto-servis shoxobchalari iste'molchilarga xizmat ko'rsatgandan so'ng, keyingi muddat kelishiga hali yetarlicha vaqt bo'lgan taqdirda ham qaytadan bog'lanib mazkur xizmatdan foydalanishini so'rab murojaat qilib kelishmoqda, agar sun'iy intellekt vositalari mazkur xizmatni bajarayotgan xodim o'rnidan elektron tarzda faoliyat yuritganda edi, ishlar tez va nisbatan kam xato bilan yakunlangan bo'lar edi.

Bu bilan sun'iy intellekt vositalarini yaratishga bo'lgan e'tibor ham borgan sari rivojlanib, katta qism olimlarining diqqat markazidan o'rin egallab bormoqda. Sun'iy intellektni yaratish bo'yicha, undan foydalanish borasidagi hamda u bilan bog'liq boshqa munosabatlarda yuzaga keladigan shartnomalarni tasniflashda, ularni ma'lum toifalarga bo'lib olish, ularning huquqiy asosini aniqlash imkonini beradi:

- Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari;
- Ilmiy-tekshirish, tajriba-konstrukturlik va texnologiya ishlari pudrati shartnomalari;
- Litsenziya shartnomalari;
- Mualliflik shartnomalari;
- Mehnat shartnomalari.

Sun'iy intellektning fuqarolik munosabatidagi qaysi turdag'i obyekt ekanligiga qarab, uning yaratilishining huquqiy asosi ham bir-biridan farqlanadi. Misol uchun, hozirgi kunda dunyo aholisining katta qismi o'z faoliyatlarini amalga oshirish mobaynida til bilan bog'liq murakkabliklarni yengillashtirish maqsadida xususan, tarjima qilish vositasi sifatida foydalanib kelayotgan ilovalarni yaratishni haq

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasi turiga kiritsak bo`ladi. Chunki mazkur ilova, dasturlarni yaratadigan shaxslar ma'lum bir xizmat evaziga buyurtmachining topshirig`iga ko`ra amalga oshiradi, shuningdek yuqoridagi tarjima xizmatini bajaradigan ilovani yaratish ashyoviy shaklda bo`lmanligi ham uning haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasiga kiritishimizga asos bo`lib xizmat qiladi. O`zbekiston Respublikasining 29.08.1996 yildagi Fuqarolik kodeksining 703-moddasida ta'riflanganidek, haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasiga ko`ra, ijrochi buyurtmachining topshirig`i bilan ashyoviy shaklda bo`lman xizmatni bajarishi ya`ni muayyan harakatlarni qilishi yoki muayyan faoliyatni amalga oshirishi, buyurtmachi esa mazkur ko`rsatilgan xizmat evaziga haq to`lash majburiyatini olishi kerakdir. Shu bilan birgalikda Fuqarolik kodeksining haq evaziga xizmat ko`rsatish to`g`risidagi bobida belgilangan qoidalari aloqa xizmati, tibbiyot, veterinariya, auditorlik, maslahat, axborot xizmatlari, ta'lim berish, sayyoqlik xizmati va boshqa xizmatlar ko`rsatish shartnomalariga ham tatbiq etilishi keltirib o'tilgan. Sun`iy intellekt obyektlarining yaratilishiga oid shartnomalarning katta qismi aynan haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasini tashkil qiladi. Sog`liqni saqlash sohasini oladigan bo`lsak, mazkur tarmoqda sog`liqni saqlash muassasalariga tashrif buyurgan bemorlarning umumiy kasallik tarixini o`zida saqlaydigan, qaysi kasallik bilan og`rigan yoki umumiy ko`rikdan oxirgi marta qachon o`tgan-u, yana o`tishiga qancha vaqt qolganligi to`g`risidagi ma'lumotlarni o`zida jamlaydigan va ular asosida bemorlarga tashxis qo`yadigan tizim yaratilishi uchun ushbu sun`iy intellektual ahamiyatga ega bo`lgan elektron tizimni yaratishni so`rab, tegishli kompaniyaga (shaxslarga) murojaat qiladi hamda ular o`rtasida haq evaziga xizmat ko`rsatish bo`yicha o`zaro fuqarolik munosabati o`rnataladi.

Sun'iy intellekt va sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratish va ularni qo'llash haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi bilan o'zaro bog'liqdir. Ushbu shartnomalardan foydalanishning to'rtta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

birinchidan, ushbu intellektual faoliyat natijalaridan foydalangan holda bir qator xizmatlar (masalan, tibbiy yoki axborot xizmatlari) ko`rsatilishi mumkin;

ikkinchidan, sun'iy intellektdan texnologiyasi (masalan, SaaS) orqali foydalangan holda ma'lum dasturlar ishlashi uchun dasturni masofadan turib foydalanishi uchun foydalanuvchi bilan xizmat ko'rsatish shartnomasi tuziladi;

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

uchinchidan, sun'iy intellekt yoki sun'iy intellekt texnologiyasidan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqiga ega bo'lgan taqdirda, foydalanuvchi faoliyatini ushbu obyektlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish zarur bo'ladi;

to'rtinchidan, ma'lum algoritmlar bo'yicha ishlaydigan kompyuter dasturlarini bozorda ilgari surish uchun reklama xizmatlarini haq evaziga taqdim etish bo'yicha shartnomalar qo'llaniladi.

“Sun'iy intellekt” texnologiyalaridan foydalangan holda haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasida intellektual faoliyatning ushbu natijalariga mutlaq huquq (nomaxsus litsenziya) berilishi nazarda tutilishi kerak. Bunday pullik xizmatlar shartnomasi aralash huquqiy xususiyatga ega bo'lib, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi va litsenziya shartnomasining elementlaridan iborat.

Sun'iy intellektni yaratilishi va uni ko'plab sohalarda qo'llab borilishi samaradorlikni oshirishga yordam bermoqda va ba'zi yirik korxonalar uchun mutlaqo yangi biznes imkoniyatlariga eshik ochib kelmoqda. Hozirgi sun'iy intellekt ilqilobi jamiyatimizga kirib kelishidan oldin haydovchilarni kompyuter dasturidan foydalangan holda avtomatik tarzda mijozlarga taksi - xizmati uchun ularni tasavvur qilish qiyin edi, ammo bugungi kunda Uber aynan shu ishni amalga oshirib, dunyodagi eng yirik kompaniyalardan biriga aylandi. Yana bir misol sifatida, Google odamlar o'z xizmatlaridan qanday foydalanishini tushunish va keyin ularni yaxshilash uchun mashinani o'rganishdan foydalangan holda bir qator onlayn xizmatlarning eng yirik tarmoqlaridan biriga aylandi. 2017-yilda kompaniya bosh direktori Sundar Pichai Googlening “Birinchi navbatda sun'iy intellekt” kompaniyasi sifatida faoliyat yuritishini ma'lum qilgandi. Demak bugungi eng yirik va eng muvaffaqiyatli kompaniyalar o'z faoliyatini yaxshilash va raqobatchilardan ustunlikka erishish uchun sun'iy intellektdan foydalanishmoqda. Hozirgi kundagi ko'plab mashhur kompaniyalar tomonidan yaratilayotgan turli ilova-xizmatlari, ilova-o'yinlar, ilova-dasturlari mazkur kompaniyalarda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassis ishchi xodimlar tomonidan yaratib kelinmoqda. Xususan, “Konami” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan “Pro Evolution Soccer” o'yin-dasturi ushbu korxona mutaxassislari tomonidan ishlab chiqariladi hamda mazkur sun'iy intellekt obyektining yaratilishida kompaniya hamda kompaniyada xizmat qiluvchi xodim o'rtasidagi o'zaro munosabatni tartibga solib turuvchi **mehnat shartnomasi** ham ahamiyatga ega sanaladi. Chunki ular o'rtasidagi mehnat shartnomasi xodimdan

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

aynan yuqoridagi kabi o`yin-ilovalarini yaratish kabi talablarni qo`yadi va ushbu xizmatlar uchun mutaxassisiga haq to`lanadi.

Shuningdek, sun`iy intellektni yaratishga oid shartnomalarga pudrat shartnomasini olsak bo`ladi, chunki ushbu texnologiya vositasini yaratish uchun ham ma'lum bir ishlab chiqaruvchilarga buyurtma beriladi va uning shakllanishi uchun ikki tomon ya`ni buyurtmachi hamda ijrochi o`rtasida kelishuv bo`ladi. Mazkur jarayonda pudratchi buyurtmachi tomonidan topshirilgan vazifani ilmiy-tekshirish, tajriba-konstrukturlik va texnologiya yaratish pudrati shartnomasiga ko`ra yangi buyum namunasini, yangi texnologiyani ishlab chiqish yoki namuna nusxasini yaratish majburiyatini oladi, shuning bilan birga buyurtmachi ham texnikaviy topshiriq berish, ishni qabul qilib olish va mazkur bajarilgan ish uchun haq to`lash majburiyatini oladi¹. Tikuvchilik faoliyati bilan shug`ullanuvchi yirik tadbirkorlik subyekti “Scoda” avtomobil ishlab chiqarish zavodiga fabrikasidagi xotin-qizlarni tashkil qiluvchi ishchilarni uyidan olib kelish va ularni qaytib uyiga eltilib qo`yadigan maxsus, o`rindiqlarning barchasida planshetlari (tikuvchilar bugungi bajaradigan ishlari to`g`risida, ish kunining tartibi to`g`risida ma'lumot taqdim etadi) mavjud bo`lgan, avto-piloti xususiyati bor (o`zi haydovchisiz harakatlanadi), sensorli o`rindiqlar bo`lgan (uning asosida fabrikaga tashrif buyurgan shaxslar soni hisoblanadi va ularning har kungi og`irlik o`lchovlarini aniqlab beriladi), o`z-o`ziga buyruq bera oladigan (favqulodda vaziyatlarda tormoz bera oladi, belgilangan tezlikni me`yorida saqlab turadi) sun`iy intellektga asoslangan avtobusni ishlab chiqarish bo`yicha buyurtma berdi. Ular o`rtasida ushbu holatda ilmiy-tekshirish, tajriba-konstrukturlik va texnologiya yaratish pudrati shartnomasi tuziladi, unga muvofiq tikuvchilik fabrikasi buyurtmachi, avtomobil zavodi esa pudratchi hisoblanadi, shuningdek belgilangan vaqt mobaynida ijrochi mazkur turdagи transport vositasini ishlab chiqarishi kerak hisoblanadi.

Sun`iy intellektni yaratish tobora rivojlanib borgani sayin uni ishlab chiqarishga qiziquvchilarning soni ham ko`paymoqda. Chunki mazkur texnologiya manbalari hayotimizning barcha sohasida o`zining o`rnini egallab bormoqda, ular orqali barcha ishlar qisqa fursatlarda, ortiqcha qiyinchiliklarsiz bajarilib kelinmoqda va ularni ishlab chiqarish ham tadbirkorlar uchun yaxshi daromad manbayiga aylanmoqda. Sun`iy intellektning yaratilishiga oid shartnomalar to`g`risida fikr

¹ O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 693-moddasi ; 29.08.1996 yil

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

yuritadigan bo'lsak, litsenziya shartnomasini ham unutmasligimiz joizdir, chunki mazkur turdag'i shartnomasi ma'lum bir sun'iy intellekt texnologiyasini yaratuvchi korxona va aynan ushbu turdag'i texnologiyani ishlab chiqaruvchi shaxs o'rtaSIDagi munosabatni tartibga soladi. Masalan "Dausung" nomli robototexnika mashinasini "A" nomli korxona ishlab chiqaradi va "B" nomli korxona ham aynan shu turdag'i robototexnika mashinasini ishlab chiqarishni so'rab, "A" korxonaga ya'ni litsenziarga murojaat qiladi hamda ular o'rtaSIDa o'zaro litsenziya shartnomasi tuziladi. Unga ko'ra, "A" korxona litsenziyat hisoblangan "B" korxonaga ma'lum bir haq evaziga litsenziarning nomidan va qo'riqlanadigan tijorat axborotidan foydalangan² holda munosabat obyekti bo'lgan sun'iy intellekt texnologiyasini ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha tadbirkorlik bilan shug'ullansa bo'ladi.

Har bir yaratilayotgan yoki ishlab chiqarilayotgan sun'iy intellekt obyektlarining ishlab chiqaruvchisi, loyiha muallifi bo'lib, ular yaratilgan asar yoki biror-bir texnologiya, ilovaga nisbatan muallif sanaladi. Sun'iy intellekt obyektlarini yaratilishida ham aynan mualliflik shartnomalarining aloqadorligini e'tiborga olishimiz kerak. Mualliflik shartnomasi – bu fuqarolik-huquqiy shartnomasi bo'lib, unga ko'ra muallif asar yaratish majburiyatini oladi va buyurtmachi - o'z ishi uchun haq to'laydi. Shartnomada yaratilishi kerak bo'lgan obyektga bo'lgan huquqlarning o'tkazilishi ko'rsatilgan bo'ladi. Yaratgan shaxs obyektga nisbatan bo'lgan mutlaq huquqni yoki undan ma'lum maqsadlar va chekllovlar uchun foydalanish huquqini topshirishi mumkin. Bularning barchasi mijoz va pudratchi qanday kelishib olishlariga bog'liq. Xizmat ishida bo'lgani kabi, mualliflik huquqini ham o'tkazib bo'lmaydi. Yaratilgan obyektning muallifi, hatto buyurtma shartnomasi bo'yicha ishlagan bo'lsa ham, uni yaratgan deb hisoblanadi.

Masalan, "Neoline" nomli kompaniya hozirgi kunda yo'l harakatida mavjud bo'lgan muammolarni (yo'l transport hodisalarini oldini olish, qoidabuzarliklarga chek qo'yish va harakatlanish xavfsizligini ta'minlash) tartibga solish uchun xizmat qiladigan sun'iy intellektga asoslangan radar uskunasini yaratdi. Ushbu sun'iy intellekt qurilmasi orqali yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan shaxslar o'z xizmat mashinalarida o'rnatilgan 360° radiusli radar orqali qoidaga zid ravisda to'xtab turgan, haraktelanish tezligini me'yordan oshirgan, svetoforning belgilangan chirog'iga amal qilmagan, yo'lning qarama-qarshi tomoniga chiqqan,

² O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 862-moddasi ; 29.08.1996 yil

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

yo'lning qatnov qismidagi chiziqlari bilan belgilab qo'yilgan talablarni bajarmagan transport vositalarini aniqlaydi, shuningdek kompaniya tomonidan yaratilgan elektron tizimga avtomatik tarzda yuklaydi. Ushbu radar qurilmasi va ma'lumotlarni avtomatik tarzda yuklaydigan elektron tizim ichki ishlar organlarining buyurtmasiga asosan “Neoline” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilmoqda hamda sun'iy intellekt manbayiga nisbatan muallif “Neoline” kompaniyasi hisoblanadi, ichki ishlar organlari uni butun tizim bo'yicha qo'llashadi, demak ushbu vaziyatda pudrat shartnomasi bilan birgalikda elektron tizimga nisbatan mualliflik shartnomasi ham tuzulishi mumkin.

Xulosa: Aqli texnologiyalarning yaratilishida asos bo`lib xizmat qiluvchi yuqorida sanab o'tilgan (mualliflik shartnomasi, mehnat shartnomasi, litsenziya shartnomasi, haq evaziga xizmat ko`rsatish va pudrat) shartnomalar fuqarolik munosabatlarini yuzaga keltiradi va tomonlar o`rtasidagi sun'iy intellektga bo`lgan huquq va majburiyatlarni tartibga soladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 693-moddasi; 29.08.1996 yil
2. E-commerce и взаимосвязанные области (правовое регулирование): сборник статей / Е.А. Останина, Л.В. Кузнецова, Е.С. Хохлов [и др.]; рук. авт. кол. и отв. ред. д.ю.н. М.А. Рожкова. – Москва: Статут, 2019. – 448 с.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yildagi PQ-4996-sonli “Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to`g`risida”gi Qarori;